

ТА'ЛИМ ЖАРAYONIDA O'QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATIDA QO'YILADIGAN TALABLAR

G'oziyeva Feruza Otaqo'zdiyevna

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Farg'ona akademik litseyi
huquqshunoslik fani birinchi toifali o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida axborot texnologiyasidan foydalanish hamda pedagog o'zida kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan kompetensiyalarni mujassamlashtirmog'i lozimligi haqida so'z boradi. Maktab va unda faoliyat olib boruvchilarning pedagogic, etik talablarga javob berishi bilim oluvchilar uchun juda muhim.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, kompetentlik, kompetensiya, psixologik-kompetentlik, innovatsion-kompetentlik, metodik-kompetentlik, kreativ-kompetentlik, kommunikativ-kompetentlik, informatsion-kompetentlik, texnologik-kompetentlik, ekstremal-kompetentlik.

Ta'lim jarayonida har bir o'qituvchi axborot kommunikatsiya vositalaridan, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanish malakasiga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, pedagog o'zida kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan kompetensiyalarni mujassamlashtirmog'i lozim. Bularga:

- psixologik-kompetentlik
- metodik-kompetentlik
- informatsion-kompetentlik
- kreativ-kompetentlik
- innovatsion-kompetentlik
- kommunikativ-kompetentlik
- texnologik-kompetentlik
- ekstremal-kompetentlik kabilar kiradi.

Bu kompetentlik tushunchalarining mazmun va mohiyati quyidagicha:

1. Psixologik kompetentlik -ta'lim jarayonini amalga oshirish mobaynida zamonaviy ta'lim tizimi rahbari sog'lom psixologik muhitni yarata olishi, pedagoglar, ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etishi, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olishi va bartaraf eta olishi;
2. Metodik kompetentlik-ta'lim jarayonini metodik tomondan samarali va oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, pedagogik jarayonda qo'llaniladigan usul va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, ijodiy yondashuvlar asosida ta'lim vositalarini samarali qo'llay olish,

sogʻlom, ruhiy pedagogik-psixologik muhitni yaratish, samarali oʻqitishni yoʻlga qoʻya olish;

3. Informatsion kompetentlik-tezkor axborot muhitida zarur, taʼlim jarayoni uchun muhim, kerakli, foydali maʼlumotlarni izlash, yigʻish, ularni alohida-alohida saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, oʻrinli, samarali foydalana olish;

4. Kreativ kompetentlik - taʼlim jarayonini boshqarishda pedagoglar faoliyatiga tanqidiy baho bera olish, jamoadagilarning sifatli faoliyat olib borishlari uchun ijodiy yondashuvning boʻlishi, rahbar oʻzining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5. Innovatsion kompetentlik - taʼlim jarayonini sifat jihatdan takomillashtirish, doimiy ravishda taʼlim sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi yangiliklarni kiritib borish, taʼlim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi gʻoyalarni ilgari surish, ularni amaliyotda samarali qoʻllay olish;

6. Kommunikativ kompetentlik - pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari, jumladan, oʻqituvchilar va oʻquvchilar bilan samimiy muloqotda boʻlish, ularni tinglay olish qobiliyatiga ega boʻlish, ichki ruhiy kechinmalarini his eta olish, xatti-harakatlari va qiziqishlariga tushunishi hamda ijobiy taʼsir koʻrsata olish. Rahbarga xos shaxsiy kompetentlik izchillikka asoslangan kasbiy oʻsishga erishish, oʻz ustida tinimsiz mehnat qilib, bilim, koʻnikma va malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatdan oʻz ichki imkoniyatlarini namoyon qilishni anglatadi. Texnologik kompetentlik - kasbiy-pedagogik bilim, koʻnikma va malakalarni boyitadigan zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarni oʻzlashtirish, taʼlim jarayonini roʻyobga chiqarishda zamonaviy usul va vositalardan oqilona foydalanish, texnika va texnologiyalarni aniq maqsadli qoʻllay olishdir.

Ekstremal kompetentlik- pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi va uning ishtirokchilarni favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, zilzilalar, texnologik jarayon ishdan chiqsa)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda, oqilona qaror qabul qilish, ularning xavfsizligini taʼminlash yuzasidan tezkor choralar koʻrish va toʻgʻri harakatlanish malakasiga egalik qilishni bildiradi.

Kompetensiya (lot. *competo* — erishyapman, munosibman, loyiqman)

1) muayyan davlat organi (mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi;

2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba. Pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilgʻor pedagogik tajriba deganda biz oʻqituvchining oʻz pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini,

o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz.

Har bir dars, mavzu o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. Ta'lim tizimiga kirib kelayotgan yangilanishlar uning mazmunini, tuzilishini, usullarini qayta ko'rib chiqish, mukammallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi —Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risidagi Qarori. —Xalq so'zill gazetasi. 2017 yil 21aprel, 79(6773)-soni
2. Djuraev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent. —Sano -Standartll MCHJ bosmaxonasi, 2010.
3. M.O.Tokhirjonovna. [VOCABULARY DEVELOPMENT IN ONTOGENESIS IN PRESCHOOL CHILDREN](#). Modern Journal of Social Sciences and Humanities 5, 375-379
4. M.O.Tokhirjonovna.Semantics of the Word in Children's Speech. International Journal of Culture and Modernity 17, 267-273
5. O.Maxmudova. [СЎЗ ЛЕКСИК МАЪНОСИНИНГ ҲОСИЛА МАЪНО ЮЗАГА КЕЛТИРИШИ](#). Science and innovation 1 (B6), 171-176
6. O.T.Maxmudova. [TURKIY SO'ZLARDA O'ZAK MORFEMA TUSHUNCHASI](#). Journal of Integrated Education and Research 1 (6), 52-54